

HOZIRGI KUNDAGI PEDAGOGLARNING O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH

Berdaliyeva Sevara Damirovna
ALFRAGANUS UNIVERSITY Pedagogika va
Psixologiya kafedra o‘qituvchisi
Email: sevaraberdialieva243@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda o‘zini-o‘zi boshqarish madaniyatini shakllantirish mexanizmi, unda amalga oshirish lozim bo‘lgan jarayonlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, usullari, metodlari xususida so‘z yuritiladi.

Bo‘lajak pedagoglarning oliy o‘quv yurtida olgan psixologik bilimlari ikki unchalik yoqimli bo‘lmagan xossaga ega. Ular, birinchidan, pedagogga amaliyotda zarur bo‘lgan barcha bilimlarni o‘z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliy o‘quv yurtlarida psixologik fanlarni o‘qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo‘lmaganda besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o‘z-o‘ziga ta’lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: O‘zini-o‘zi boshqarish, tafakkur, g‘oya, fikr, jarayon, pedagog, nutq, ichki tuyg‘u, iroda, diqqat, mnemik jarayonlar.

SELF-MANAGEMENT OF TEACHERS TODAY

ABSTRACT

This article talks about the mechanism of self-management culture formation in future pedagogues, social-psychological aspects, methods, methods of the processes that should be implemented in it.

The psychological knowledge of future pedagogues acquired at the higher educational institution has two not-so-pleasant properties. First of all, they did not include in their work all the knowledge necessary for the pedagogue in practice, the reason for this is the limited amount of class hours allocated for teaching psychological sciences in pedagogical higher educational institutions. Second, this acquired knowledge quickly becomes obsolete and requires updating at least once every five years, which can be done through self-education or professional development.

Key words: Self-management, thinking, idea, thought, process, pedagogue, speech, work feeling, will, attention, mnemonic processes.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim mazmunini modernizatsiyalash munosabati bilan oliy ta’lim muassasalarida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ishlar birmuncha jonlandi. 2017 yilda qabul kilingan «Oliy ma’lumotli mutaxassislar

tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror kasbiy oliy ta'limni o'zgarib borayotgan jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga tez moslashishga yordam beruvchi yangi ta'limiy texnologiyalarni, jumladan, distansion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va ulardan samarali foydalanishning zarurligi qayd etilgan. Turli kafedralar (ayniqsa, pedagogika va psixologiya kafedralari) o'qituvchilarida pedagogik innovatsiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy ishlarga katta qiziqish uyg'ondi. Biz tadqiq qilayotgan muammoga oliygohlardagi nisbatan ijobiy siljishlar shakllantiruvchi tajriba-sinovlar o'tkazishda hisobga olindi. Xalq ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Shu sababdan, xalq ta'lim sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lim vazirligi ko'plab dasturlar tasdiqlangan. Xalq ta'lim muassasasining mazkur davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining maktab yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy huquqiy hujjat bo'lib, unda Xalq ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quvtarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o'z navbatida Xalq ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi.

Pedagoglik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e'tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tiborga loyiq deb hisoblanib, e'zozlab kelingan kasbdir.

Nasiriddin Tusiy o'zining "Pedagoglarni tarbiyalash to'g'risida" degan asarida shunday deydi: "...Pedagog munozaralarni olib borishni, rad etib bo'lmaydigan darajadagi isbot kilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jummalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... Pedagog nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo'pol yoki qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida pedagogning o'zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin.

Pedagogik faoliyatni yetarlicha yuqori darajada amalga oshira oladigan, o'quvchilarning o'qitilganligi va tarbiyalanganligida yaxshi natijalarga erishadigan hamda shaxs sifatida o'zini yuzaga chiqara oladigan o'qituvchi kasbiy kompetentli bo'lib hisoblanadi.

kasbiy pedagogik bilimlar bilan;

kasbiy pedagogik mahorat bilan;

o'qituvchining ham bilish sohasiga, ham motivatsion sohasiga tegishli bo'lgan kasbiy ahamiyatli sifatleri

kasbiy pedagogik pozitsiyasi bilan; - o'qituvchining xulq-atvorini

belgilaydigan (o'quvchilarga, o'ziga, hamkasblariga) barqaror munosabatlari tizimi bilan. O'qitish jarayonida shakllantiriladigan bilim, mahorat va ko'nikmalar ko'pincha real hayotdagi vaziyatlarda keraksiz bo'lib qoadi. Ularning bunday o'ziga xosligi bo'lajak o'qituvchilarning eng birinchi o'rinda, moslashuvchan, mobil bilimlari va ulardan turli xil, shu jumladan, tipik bo'lmagan vaziyatlarda ham foydalana olish mahoratining shakllantirilishiga qaratiladigan kasbiy hamda metodik tayyorgarligi mazmuniga bo'lgan o'ziga xos talablarni birinchi o'ringa olib chiqadi

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagog tomonidan tashkil etilgan o'quv jarayonida subyektning ta'lim olishi uning o'ziga xosligi va xarakterida namoyon bo'ladi, bu uning o'quv usuliga ta'sir ko'rsatadi. Shakllangan individual o'quv usullari sxematik ravishda ikki qutb bilan ko'rsatilishi mumkin: "ijobiy" – "salbiy". Quyida keltirilgan jadval o'quv jarayonida bunday usullarni ko'rsatib beradi. Pedagog dars jarayonida buni inobatga olgan holda yondoshishi maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonida bolalarning individual farqi (G.Klaus bo'yicha)

Bo'lajak pedagoglarning oliy o'quv yurtida olgan psixologik bilimlari ikki unchalik yoqimli bo'lmagan xossaga ega. Ular, birinchidan, pedagogga amaliyotda zarur bo'lgan barcha bilimlarni o'z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliy o'quv yurtlarida psixologik fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo'lmaganda besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o'z-o'ziga ta'lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo'ladi. Muslimov N.A. , (Muslimov N.A 2014)

Pedagogning psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi deyilganda, uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishini nazarda tutadi, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, shuningdek, boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya.

Pedagogning amaliy faoliyatida psixologik ma'lumotlar olishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati yetarli darajada salmoqlidir. Holbuki, pedagogga muntazam ravishda ilmiy kitoblarni va jurnallarni o'qishga hojat yo'q, asosiy psixologik bilimlar jamlangan holda keltirilgan, pedagogik faoliyat uchun foydali bo'lgan bo'limlarga murojat qilishning o'zi yetarlidir. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – (M.: Znaniye, 2016.)

Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat – bu o'z- o'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq- atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir.

O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi:

Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq, shuningdek shaxs xislatlari – xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o‘tilgan psixik jarayonlarda o‘z-o‘zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg‘ulari bilan bog‘liqdir. Ma‘lumki, ichki tuyg‘u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo‘lib xizmat qiladi, iroda bo‘lsa xatti - harakatlar quvvati va yo‘nalishlarini ta‘minlaydi.

Qabul qilish o‘z- o‘zidan boshqaruvni aniq qabul qilish vazifalarini qo‘yadi – obrazni tuzish, qo‘yilgan savollarga – nimani kuzatish kerak? nima uchun kuzatish? qanday qilib kuzatish? – kabi aniq javob topish kerak. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – (T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015). Kuzatuvni boshlashdan avval biz o‘zimiz uchun bu savollarga javob berishimiz lozim bo‘ladi.

Murakkab pedagogik sharoitlarda (vaziyatda) bunday savollarga aniq javob topishni iloji bo‘lmaydi, bu vaziyatda aniq javob topish uchun bir muncha aqliy va jismoniy kuch sarf qilishga to‘g‘ri keladi. Bunday savollarni avvaldan o‘ylab ko‘rish va ularga amal qilishni talab qiladi, natijada o‘z- o‘zini boshqarishni nazarda tutadi.

Diqqat- e‘tiborni boshqarish bir muncha boshqa narsalarga asoslanadi. Ixtiyoriy bo‘lmagan diqqat- e‘tiborni boshqarish ular bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar, ya‘ni organizmning psixofiziologik holatlarini boshqarish orqali bevosita amalga oshirish mumkin. Charchoq oqibatida ixtiyoriy bo‘lmagan diqqat-e‘tibor yomon boshqariladigan bo‘lib qoladi. Xuddi shunday holat kasallik davrida, haddan tashqari emotsional junbushga kelgan holatda, affekt yoki stress holatlarida ro‘y beradi. Bir muncha ta‘sir qiladigan vositalar – dam olish, davolash, psixofizik autotrening bu tarzdagi diqqatni boshqarishda yaxshi samara beradi.

Ixtiyoriy diqqatni, qiziqish uyg‘otadigan, so‘z yordamida yoki qo‘llab-quvvatlash orqali boshqarish mumkin. Odamning diqqatini biror narsaga qaratish uchun, uning qiziqishini qo‘llab - quvvatlash kifoya qiladi. So‘z orqali o‘z-o‘zini yo‘naltirish yoki verbal o‘zi-o‘zini boshqarish har doim to‘g‘ridan- to‘g‘ri yoki bevosita qiziqishga asoslanadi. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – (Sayidahmedov N. 2013.) Ayrim hollarda o‘zini majbur qilib qandaydir obyekt, holat yoki voqelikning qiziqarli tomonlariga e‘tiborni qaratish, diqqatni uzoq bo‘lmagan vaqt oralig‘ida jalb qilish uchun yetarli bo‘ladi. Qabul qilish orqali ham ularni ma‘lum darajada boshqarish mumkin. Pedagog uchun eslash qobiliyatini boshqarish bir muncha qiyinroq va zarurroqdir. Uchtadan ikkita bizga ma‘lum eslash jarayoni – eslab qolish va olingan axborotni qayta tiklashni – o‘z- o‘zini boshqarish bilan rivojlantirish mumkin. Eslab qolish jarayonining uchinchi – axborotni saqlab qolishni boshqarish mushkulroqdir, chunki u ong osti holati (shaxs tomonidan anglab olinmaydigan psixik va holatlar yig‘indisi) darajasida ishlaydi holbuki yodlashni anglab tashkil etib, bevosita ularni ham boshqarish mumkin. Mnemik jarayonlarda o‘z- o‘zini boshqarish har xil usullarga asoslanadi, tasavvur assotsiatsiyalanib bir butunga

bog‘lab, ongli ravishda ko‘rib chiqiladi. Eslab qolish zarur bo‘lgan narsalar ko‘z orqali ko‘rilsa, yoki biror narsa bog‘lab tasavvur qilinsa yodda qolishi kuchayadi. Eslab qolishni tezlatish uchun sun‘iy ravishda yodda bo‘lgan persektiv obrazlarni va tashqi narsalarni tafakkurda uyg‘otib, ong orqali ularni yangi eslab qolishi kerak bo‘lgan narsalar bilan bog‘lash lozim. Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaraliroq qilish mumkin.

Kasbiy tayyorgarlik - maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma‘naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish - DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni mavaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlanish jarayonidir. Kasbiy tayyorlash - bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarni o‘zlashtirish, individuallasuvi demakdir. Ma‘lumki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish aniq maqsadga yo‘naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy moslashtirish jarayonining bosqichlarini turlicha tavsiflanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi: 1-bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo‘nalganlik 2-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o‘zlashtirish 3-bosqich. Kasbiy o‘z-o‘zini anglash, moslashish Xulosa: Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va moslashtirish katta ahamiyatga ega. Chunki pedagoglarning mashaqqatli mehnatlari orqali jamiyat rivojlanadi. O‘z-o‘zini kelayotgan yosh avlod komil inson bo‘lib yetishadi. Shuning uchun har bir pedagog o‘z kasbiga sidqidildan yondashish kerak. Kasbiga hurmat, tinimsiz izlanish, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish har bir insonning muqaddas burchi sanaladi.

O‘z-o‘zini boshqarish o‘rni va unda yoshlarning yuksak tarbiya topishlari uchun mas‘ul vazifador taraflarning faoliyatini yaxshilash va yangilashning zarurligi; ikkinchidan, o‘z-o‘zini boshqarish faoliyati mamlakatimizning barcha hududlarida ham birdek samarali natija bermayotganligi va o‘quvchi-yoshlarning tarbiyasi borasida muammolarga duch kelinayotganligi, qarorlarda ko‘zlangan maqsad ko‘rsatkichini amaliy hayot ko‘rsatayotgan natijalarga solishtirganda ancha past darajadali (ayrim hamkorlik tizimlari misolida), sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar natijasi hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlar talab darajasi bilan muvofiqligini doimiy o‘rganib borishning zaruriyatini ta‘minlashda yoshlarimizni Yangi renessansga munosib avlod bo‘lishlari uchun “qay yo‘sinda tarbiyalash kerak, ularni qanday ma‘naviy-axloqiy sifatlantirish kerak edi va bugungi kunda tarbiya ichida qanday natijaga erishmoqdamiz?”, - kabi savollar asosida har bir umumta‘lim

maktablari egallab turgan reytingida aks etib turichi kerak. Shunga qarab, ta'lim-tarbiya ishimizni baholash hamda yanada yo'naltirish mumkin. Chunki, yurtimizda ta'lim-tarbiya qonunchiligi puxta ishlab chiqilgan bo'lib, mas'ullar oldiga juda ko'r murakkab vazifalarni qo'yadi. Tarbiya qonuniyatidan chiqmaslik va uni buzmaslik hamisha ham bir tekisdek kuzatilavermaydi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi. Xalq ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachidan chuqur pedagogik psixologik tayyorgarlik, har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi hamda shaxsiy reja tuzishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishi talab etiladi: – vujudga keladigan pedagogik muammolarni bashorat qila olishi; buning uchun bo'lajak pedagog-tarbiyachi pedagogik jarayonda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko'ra bilish va uni bartaraf etish layoqatiga ega bo'lishi lozim; – vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish metodlarini o'zlashtirishi; – vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishning eng qulay usullarini tanlay va qo'llay olishi; – o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish, ularni qo'llab quvvatlash mahoratiga ega bo'lishi; – har bir o'quvchiga individual yondasha olishi; – o'quvchilar bilan ommaviy tadbirlarni tashkil eta olish ko'nikmasini egallashi; – o'quvchilarni kitobxonlik, kitob sevarlikka unday olishi kabilar. Bo'lajak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash imkonini beradi. Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari o'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi o'quvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo'llash, rahbarlik ko'nikmalarini egallash, o'quvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog o'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o'zlashtirishlari kerak. Ular: – o'quvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish; – bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish; – guruhdagi faol o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yordam ko'rsatish; –

o`quvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag`batlantirish;

Pedagogik amaliyot davrida bo`lajak pedagog-tarbiyachilarda o`z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o`zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo`llash, rahbarlik ko`nikmalarini egallash, o`quvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o`rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o`zlashtirish kabi ko`nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo`lajak pedagog o`qituvchilar o`z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o`zlashtirishlari kerak. Ular: – o`quvchilarda ongli intizomni tarkib toptirish; – bolalarga nisbatan adolatli munosabatda bo`lish; – guruhdagi faol o`quvchilarni qo`llab-quvvatlash va ularga yordam ko`rsatish; – o`quvchilarning mustaqil faoliyatlarini munosib rag`batlantirish;

Demak, bugungi kunda o`z-o`zini boshqarish tizim sifatini ob`ektiv va individual tarzda miqdoriy baholash indikatorlarini ishlab chiqish va takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida tadqiq talab muammo hisoblanadi. Ta`lim jarayonining qaysi sohasi bo`lishidan qat`i nazar - u tarbiyaviy faoliyatmi, tadqiqotchilikka yo`naltirilgan faoliyat bo`ladimi, pedagoglarning kasbiy kompetentligini aniqlash bilan bog`liq holat bo`ladimi, agarda ular qanday samara berayotganligi doimiy kvalimetrik-monitoring qilinmasa, oqilona baholab borilmasa bunda tizim o`z maqsadiga erisha olmaydi. SHuning uchun ham, monitoring tushunchalari mohiyatiga ko`ra bir xil maqsad asosida birlashadi va bir-birini to`ldiradi.

Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta`lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta`lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta`lim oluvchilarni dolzarb bilimlar bilan ta`minlash uchun o`z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o`zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta`lim tizimini modernizatsiyalash ta`lim oluvchilarning ham ta`lim olish faoliyatidagi o`zgarishlarni ko`rsatadi [6-11]. MUHOKAMA Bugungi kunda kompetentli yondashuvga tayanib, bu yondashuv nafaqat kasbiy faoliyat kometensiyalarining shakllanishini, balki bo`lajak mutaxassisning shaxsiy sifatleri yuzaga chiqarilishini ham ko`zda tutadi. Oliy ta`lim standartida bo`lajak mutaxassisga mehnat bozoridagi raqobatbardoshlik, o`z kasbini erkin egallaganlik va faoliyatning turdosh yo`nalishlarida yo`nalishni topa olish imkoniyatlari haqida talablar qo`yiladi – bularning barchasini kompetentli yondashuv sharoitlaridagina yuzaga chiqarish mumkin.

Ta`lim muammolaridan pedagogik kvalimetriya masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlar esa aksariyat olimlarimiz tomonidan tadqiq etilgan bo`lib, asosan, J.Tolipova¹ning pedagogikaga bag`ishlangan ishlari hamda D.D.Inamovning bitiruv malakaviy ishini baholashda kvalimetrik yondashuv muammolariga qaratilgan

tadqiqot ishlarini yaqqol olishimiz mumkin. Yurtimiz va xorijda olib borilgan pedagogik kvalimetriyaga doir izlanishlar asosan ta'lim jarayonini baholashga qaratilgan bo'lib, xususan, J.Tolipovning darsliklarida "pedagogik kvalimetriya" kvalimetriyaning amaliy tarmog'iga ajratilib, kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilinganligi va ushbu asosdan kelib chiqib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifatini taqqoslash orqali aniqlanishi kabi masalalar o'z aksini topgan. Tadqiqotchi hozirgi zamon nuqtai nazaridan kvalimetriyaning sifat ko'rsatkichlari ikkita yirik guruhga, tabiiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ajratib ko'rsatadi: Tabiiy ko'rsatkichlar o'z navbatida, o'rganilayotgan ob'ektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko'rsatkichlariga ajratiladi. Ijtimoiy ko'rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea-hodisalar, ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlari, pedagogik jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqei va o'zni, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga qo'llaniladi. O'Tolipov, D.Ro'ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo (O'Tolipov, D.Ro'ziyeva. 2005.) 4. Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxlitlikda o'rganadi va baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi². Demak, har qanday faoliyatning qiymati "sifat" va "samaradorlik" parametrlari bilan ahamiyatlidir. Lekin aynan ma'naviy-axloqiy sohada sifat va samaradorlik o'lchami tizimli ravishda aniqlanmagan va o'rganilmagan miqdor hisoblanadi. Tadqiqotimiz mobaynida Q.U. Umidullaevning. rejalashtirilgan natijaga erishishdir"³, S.Mishaelning esa falsafiy jihatdan "samaradorlik "to'g'ri ish qilish" degan ma'noni anglatadi, sifat esa "to'g'ri ish"ni anglatadi"⁴ degan qarashlariga asoslandik.

NATIJALAR

Tafakkurni o'z- o'zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir [5]:

- hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish;
- talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash;
- doimiy ravishda mashq o'tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish;
- tafakkurni aniq yo'nalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, ya'ni ketma- ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternativ yo'llarni ko'rib chiqish (bu – vosita anglash jarayoni "sikllanish" deb nomlanadi)
- vazifani hal qilishning yo'llari bilan bog'liq bo'lgan aniq farazlarni o'z ichida yoki ovoz chiqarib so'zlash (gapirish).

XULOSA VA MUNOZARA

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda.

Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz ta'limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy ta'lim muassasalari oldiga faqatgina o'qimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan ko'ra biladigan, to'g'ri qaror qabul qila olish mahoratiga ega, o'zini-o'zi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qo'yilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2014.

Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 2016.

Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.

Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2013.

O`Tolipov, D.Ro`ziyeva. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.- T.:Innovatsiyo-ziyo, 2019. 2. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. Tuzuvchilar: D.Ro'zieva, M.Usmonboeva, Z.Holiqova. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet. 3. Golish L.V. Texnologii obucheniya na lektsiyax i seminarax/ Uchebnoe posobie/ Pod obit red. Akad. S.S. Gulyamova. - T.: TGEU, 2005. 4. O'. Tolipov, M. Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya v

www.lib.ru

www.lex.ru

www.ziyonet.uz

SELF-MANAGEMENT OF TEACHERS TODAY

Email: sevaraberdialieva243@gmail.com

This article talks about the mechanism of self-management culture formation in future pedagogues, social-psychological aspects, methods, methods of the processes that should be implemented in it.

The psychological knowledge of future pedagogues acquired at the higher educational institution has two not-so-pleasant properties. First of all, they did not include in their work all the knowledge necessary for the pedagogue in practice, the

reason for this is the limited amount of class hours allocated for teaching psychological sciences in pedagogical higher educational institutions. Second, this acquired knowledge quickly becomes obsolete and requires updating at least once every five years, which can be done through self-education or professional development.

Key words: Self-management, thinking, idea, thought, process, pedagogue, speech, work feeling, will, attention, mnemonic processes.

The psychological knowledge of future pedagogues acquired at the higher educational institution has two not-so-pleasant properties. First of all, they did not include in their work all the knowledge necessary for the pedagogue in practice, the reason for this is the limited amount of class hours allocated for teaching psychological sciences in pedagogical higher educational institutions. Second, this acquired knowledge quickly becomes obsolete and requires updating at least once every five years, which can be done through self-education or professional development.

When it is said that the pedagogue works on himself psychologically, it means that he regularly familiarizes himself with the latest achievements in various areas of psychology, which are directly and indirectly related to education and training. This is educational psychology, educational psychology, psychology of youth, differential psychology, social psychology, personality psychology, as well as medicine, pathopsychology, psychophysiology and psychotherapy within the borders of other disciplines.

The list of literature from which a pedagogue can get psychological information in his practical work is sufficiently significant. However, the pedagogue does not need to regularly read scientific books and magazines, it is enough to refer to the sections where basic psychological knowledge is summarized and useful for pedagogical activity.

Self-management, that is, the ability to control one's own mental state and behavior, and the ability to move in alternative ways in complex pedagogical situations, is a very important aspect of a teacher's professional activity.

The psychological basis of self-management involves the cognitive process: Intuition, perception, attention, imagination, thinking, memory, speech, as well as personality traits - behavior, emotional state, reaction to the situation. Self-control in the above-mentioned mental processes is related to human characteristics and situations, his will and work feelings. It is known that the working feeling serves as the basis of freedom in managing all mental states, and if there is a will, it provides the strength and direction of actions.

Therefore, today, development and improvement of indicators for quantitative assessment of the quality of the self-management system in an objective and individual way is a research and demand problem as an urgent task. Regardless of the field of the educational process - whether it is an educational activity, a research-oriented activity,

whether it is a situation related to determining the professional competence of pedagogues, if there is no constant qualitative monitoring of how effective they are , the system will not achieve its goal if it is not evaluated rationally. That is why the concepts of monitoring are essentially united and complement each other based on the same goal.

It is necessary to create conditions for continuous updating of knowledge and competencies of pedagogic personnel and improvement of the entire educational system. The introduction of innovative technologies into the educational process allows students to introduce new approaches to their professional activities and increase their level of mastery. Modernization of the educational system also shows changes in the educational activities of learners [6-11]. DISCUSSION Today, relying on the competent approach, this approach envisages not only the formation of competences of professional activity, but also the emergence of personal qualities of the future specialist. The standard of higher education requires the future specialist to be competitive in the labor market, to freely master his profession, and to find a direction in similar areas of activity - all this can be realized only in the conditions of a competent approach.